

SAFO MATJON
HILOLA BAKIYEVA
XOLIDA GULYAMOVA

BOSHLANG`ICH SINFLARDA
ONA TILINI O`QITISH
METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SAFO MATJON
HILOLA BAKIYEVA
XOLIDA GULYAMOVA**

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'QITISH METODIKASI

(O'quv qo'llanma)

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2023

UO'K 37.0;373
KBK 74.202;74.261.4
M-73

Safo Manchonov, Hilola Bakiyeva, Xolida Gulyamova
Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi [O'quv qo'llanma]:
- Toshkent. Zebo Print - 2023.- 346 bet.

Taqrizchilar:

Ernazarova Manzura - *filologiya fanlari doktori (DSc),
Navoiy davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası mudiri.*

Hamroyev Alijon - *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.
Buxoro davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
mudiri.*

Shofqorov Abdushukur - *filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası
mudiri.*

Mazkur o'quv qo'llanmada fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, mazmuni, o'qitish metodlari, usullari va vositalari, ona tili va o'qish savodxonligi darslarining sinfda hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarida bolalar adabiyoti namunalari ustida ishlash metodikasi misolida o'z aksini topgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda adabiy-nazariy ma'lumotlar, turli janrdagi asarlar matni ustida ishlash metod, usul va vositalari, matn tahliliga xalqaro tajribalarni tatbiq qilish namunalari keltirilgan. Talabalarning o'z bilimlarini tekshirish uchun tavsiya etilgan testlar, mustaqil ishlariga doir savol-topshiriqlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga y'onaltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalariga mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanmadan magistrlar, mustaqil izlanuvchilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-8555-8-8

I BO`LIM. BOSHLANG`ICH SINFLARDA ONA TILI O`QITISH METODIKASI - PEDAGOGIK FAN SIFATIDA

1- §. Boshlang`ich sinflarda bolalar adabiyotini o`qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Jahon miqyosida kichik yoshdagi maktab o`quvchilarini jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslari bilan tanishtirish darslarini, o`quvchilar hamda o`qituvchining o`zaro hamkorligi asosida tashkil qilish boshlang`ich ta`lim modernizatsiyasining tub mohiyatini tashkil etadi. Yangi O`zbekiston taraqqiysi ijrosiga bog`liq raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uzluksiz ta`limning bosh bo`g`ini maktabgacha ta`lim mussasasi tarbiyalanuvchisini maktab ta`limiga olib kirishdan tortib boshlang`ich ta`lim jarayonida ularning sifatli ta`lim olishlari uchun sharoit yaratish, bilimlarni egallashni ta`minlovchi o`qitish metodlari, usullari va vositalarini tanlash hamda ta`lim jarayoniga tatbiq etish orqali o`zaro kommunikatsiyaga va hayotga tayyorlashgacha ta`lim sifatini oshirishning asosiy omillari sanaladi.

Davlatimiz rahbarining ijtimoiy hayotga tatbiq qilinayotgan "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmonida qayd qilingan "uzluksiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta`lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" masalasi mamlakat ravnaqiga xizmat qilayotgan barcha soha vakillarining o`z faoliyatini yangicha yondashuvga asoslangan holda tashkil etishni taqozo qilmoqda. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida"gi farmonida belgilab berilgan ma`naviy taraqqiyotni ta`minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi ustuvor yo`nalishlar asosida ta`lim tizimini isloh qilish davr talabi sifatida qaralmoqda.

Dunyo miqyosidagi hozirgi globallashuv sharoitida

ta'lim tizimiga pedagogik innovatsion texnologiyalarning keng miqyosda joriy qilinishi tufayli o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish rivojlantiruvchi ta'limning muhim jihati sifatida yosh avlodni jahon standarti talablariga javob berish darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang'ich sinflarda o'quv savodxonligini monitoring qilish bo'yicha o'qish va matnni tushunish sifatini xalqaro o'rganish (The Progress in International Reading literacy Study) PIRLS talablarini amalga oshirishda o'qish ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ma'lumki, PIRLS dasturi asosida o'quvchilar o'qishning ikki xil turi bo'yicha mashg'ulot davomida va maktabdan tashqari baholanadilar. Bunda:

a) adabiy ta'lim tizimini o'zlashtirish tajribasini o'rganish maqsadida o'qish darajasini aniqlash;

b) ta'lim jarayonida beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishga doir o'qish darajasini aniqlash ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq o'quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish qobiliyati aniq berilgan ma'lumotni topish; ma'lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish; matn mazmunini, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish hamda baholash; xulosalarni shakllantirish kabi 4ta mezon bo'yicha baholanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqishini oshirishni va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Ma'lumki, badiiy asarlarni o'qish bilan bog'liq holda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, o'zligini anglashga yo'naltirish, vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishda